

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY
ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY TADQIQOT MARKAZI**

MIRZAYEVA MATLUBA G‘AYBULLA QIZI

**XUSUSIY BANKLARNING KAPITALLASHUV DARAJASINI
OSHIRISH YO‘LLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавления автореферата доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Economical sciences**

Mirzayeva Matluba G‘aybulla qizi

Xususiy banklarning kapitallashuv darajasini oshirish yo‘llari3

Мирзаева Матлуба Гайбулла кизи

Пути повышения уровня капитализации частных банков.....29

Mirzaeva Matluba Gaybulla kizi

Ways to increase the level of capitalization of private banks.....57

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....61

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
“O’ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY
ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY TADQIQOT MARKAZI**

MIRZAYEVA MATLUBA G‘AYBULLA QIZI

**XUSUSIY BANKLARNING KAPITALLASHUV DARAJASINI
OSHIRISH YO’LLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025-yil

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2025.1.PhD/Iqt2771 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida (www.tsue.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalı (www.ziyonet.uz) manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Jumayev Nodir Xosiyatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Alimardonov Ilhom Muzrabshohovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

“Aloqabank” ATB

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.I.16.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «_____» _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100000, Toshkent shahar, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871)2326992; e-mail: info@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871)232-69-92; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ da tarqatildi.
(2025-yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

S.U. Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahon iqtisodiyotida xususiy banklarning kapitallashuv darajasini oshirish moliyaviy tizim barqarorligini mustahkamlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kapital bazasining kuchayishi banklarning moliyaviy bardoshlilagini oshiradi, kredit berish imkoniyatlarini kengaytiradi va moliya bozorlaridagi tavakkalchilik darajasini pasaytiradi. Shu orqali xususiy sektor faoliyati faollashadi, yangi investitsiya loyihalari moliyalashtiriladi va umumiy iqtisodiy faoliyatda o'sish kuzatiladi. Shuningdek, kapitallashuvning yuqori darajasi bank tizimidagi ishonchni mustahkamlab, global moliyaviy beqarorlikka nisbatan iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'ladi. Xususan, Jahon banki ma'lumotlariga asosan, "2020-yil oxiriga kelib dunyoning 1000 ta eng yirik banklariga tegishli birinchi darajali kapitalning umumiy kapitali 9,9 trln dollarni tashkil etdi, bu esa tarixdagi eng yuqori ko'rsatkich bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 12,7 %ga ko'pdir. 1000 ta bank uchun 1-darajali minimal kapital ham 547 million dollarga yetdi. Bu birinchi marta 500 million dollardan oshdi va COVID-19 pandemiyasi sharoitida yuzaga kelgan qiyinchiliklarga qaramay, global bank sektori iqtisodiy buxronni yengish uchun kuchli pozitsiyada ekanligini namoyish etadi" ¹. Tijorat banklari, ayniqsa, xususiy banklar kapitallashuv darajasini ta'minlashda ularning joriy likvidlilagini yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar va passivlarning barqarorligi hisobiga ta'minlash hamda regulyativ kapitalning yetarlilikiga qo'yiladigan talablarni oshirish muhim o'rinn tutmoqda.

Hozirgi kunda jahonda xususiy banklarning kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar asosan moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, tavakkalchilikni boshqarishning samarador modellarini ishlab chiqish, kapital talablari me'yorlarini optimallashtirish hamda banklarning kredit faoliyati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Shuningdek, tadqiqotlarda Bazel me'yorlari (ayniqsa, Bazel III va Bazel IV) doirasida kapitalga bo'lgan talablarning ta'sirini baholash, banklar kapital strukturasining dinamikasi va makroiqtisodiy muhitga moslashish jarayonlarini o'rganish, shuningdek, raqamli banklashuv va moliyaviy innovatsiyalar sharoitida kapitallashuvning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish ustuvor yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda xususiy banklar kapitallashuv darajasini ta'minlash va barqaror manbalar hisobiga muntazam oshirib borish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Xususan, banklarning oddiy aksiyalarini fond bozorida erkin muomalasining mavjud emasligi, banklar kapitalida davlat ulushining yuqoriligi, umumiy kapital tarkibida emission daromadning deyarli mavjud emasligi, bank aksiyalariga to'lanadigan divedend miqdorining juda pastligi, depozit bazasining zaifligi, muammoli kreditlar ulushining ortish tendensiyasiga egaligi kabi omillar banklarning kapitallashuv darajasini ta'minlashga va oshirishga salbiy ta'sir

¹ <http://www.worldbank.org/>

etmoqda. Xususan, “bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta’minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchlilagini mustahkamlash”² muhim yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni yechimini topishda mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishni talab etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-son “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkmlash yili”da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to‘g‘risida”, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 2-sentabrdagi PF-5177-son “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha bиринчи navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 12-sentabrdagi PQ-3270-son “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda boshqa ushbu sohadagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xususiy banklar kapitalining mohiyati, tarkibi uning yetarliligi va kapitallashuv darajasini takomillashtirish masalalari xorijlik klassik va zamonaviy iqtisodiy olimlar – A.Smit, K.Marks, I.Traxtenberg, S.Lukash, V.Kiselyev, O.Lavrushin, J.Matuk, Dj.Barlton, D.Mak-Notton, E.Ridlarning ilmiy ishlarida chuqur tadqiq qilingan³. O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Sh.Abdullayeva, T.Karaliyev, A.Omonov, B.Babayev, U.Ortiqov, U.Rozukulov, M.Egamova, R.Qurbanovlarning ilmiy ishlarida xususiy bank kapitalining alohida jihatlari tadqiq qilingan⁴.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoniga 1-ilova. //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2017. – № 6 (766). – 32-b.

³ Смит А. Исследование о природе и причинах богатств народа. – Петрозаводск.: 1993. - С.271. Маркс К. Капитал. Критика политической экономики. - Т3 КН 2 М.: 1989. – С.442. Трахтенберг И. Денежное обращение и кредит при капитализме. – Москва.: 1962.- С.547. McLeod .The Theory of credit. London.-1897у С.Н. Лукаш, А.А. Малютина «Банковская энциклопедия». Днепропетровск 1994. С-24 Банковское дело под ред. Проф. И.О.Лаврушина М- «Ф и С» 2001г. С-74. В.В Киселев. «Управление банковским капиталом» Москва «Экономика» 1997. С-18. Жан Матук. «Финансовые системы Франции и других стран» 1том перевод с англ. Москва «Финстатикформ» 1994г С-25. Э.Рид, Котлер, Э.Гилл ва Р.Смит Коммерческие банки. перевод с англ. М. «Прогресс» 1933г. С-189 Борисов А.Б. Большой экономический словарь. Издание второе, Москва Книжный мир 2006 г С-299. Крис Дж Барлтон ва Д Мак-Нотон «Банковские учреждения в развивающихся странах», 2 том. Всемирный банк Вашингтон, Д.С 1992г. С-101.

⁴ Sh.Abdullayeva, T.Karaliyev va U.Ortikov. «Bank resurslari va ularni boshqarish» Toshkent. “Iqtisod-Moliya”, 2009-yil B-48-49. Бабаев Б.Б. Вопросы формирование ресурсов коммерческих банков и их эффективное использования. Автореферат диссертации на соиск уч. степ. к.э.н. –Ташкент: БФА. 2002.-21 с.; Omonov A.A. Bank kapitalini samarali boshqarish masalalari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliv ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqotni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi xususiy banklari kapitallashuv darajasini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari:

bank kapitallashuvining bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lgan manbalari va barqarorligining iqtisodiy ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish;

xususiy banklar kapitallashuv darajasini oshirishning nazariy va metodologik asoslarini ilmiy jihatdan o‘rganish;

xususiy bank kapitalini shakllantirish va kapitallashuv darajasini oshirishni ta’minlashning xorijiy tajribalarini o‘rganish, ularning ijobjiy jihatlarini mamlakatimiz bank faoliyatida qo‘llash yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar shakllantirish;

xususiy banklar kapitallashuv darajasini oshirish bilan bog‘liq muammolarni aniqlash va ularning yechimlari yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

mamlakatimiz xususiy banklar kapitallashuv darajasini oshirish borasida ilmiy takliflar, amaliy tavsiyalar va tegishli xulosalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi xususiy banklari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini xususiy banklar kapitallashuv darajasini oshirish jarayonida sodir bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida moliyaviy tahlilning guruhlash, tarkibiy, qiyosiy, omilli tahlil va moliyaviy koeffitsiyentlar usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qo‘shimcha kapitalning asosiy tarkibi hisoblangan uzoq muddatli subordinar qarzni chiqarish amaliyotini “yashil subordinar obligatsiyalar” va “fintex asosidagi tokenlashtirilgan subordinar moliyalashtirish vositalari” hisobiga kengaytirish orqali xususiy banklar kapitallashuv darajasini ($3\% \leq KDXB \leq 5\%$) oshirish hamda resurs bazasini mustahkamlashga asoslangan;

xususiy banklarning o‘z mablag‘lari manbalari tarkibida aksiyalarning an’anaviy chiqarilishi bilan birga innovatsion moliyaviy instrumentlar – konvertatsiya qilinadigan obligatsiyalar, steykling (staked) aktivlar orqali

dissertatsiya avtoreferati –Toshkent: DJQA, 2005. -21 b.; Ortikov U.D. Bank resurslari va ularni boshqarish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati –Toshkent: BMA, 2008. -20 b.; Розукулов У.У. Анализ надежности коммерческих банков и пути укрепления их устойчивости. Автореферат диссертации на соиск. учен. степ. к.э.н. –Ташкент: БФА, 2002. -22 с. Egamova M.E. “Tijorat banklari kapitallashuv darajasini oshirishda daromadning roli”. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferati Toshkent: TMI, 2019.-56 b. Qurbanov R.B. “Xususiy banklarning resurs bazasi va uni mustahkamlash masalalari” Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferati Toshkent: TMI, 2012.-56 b.

mablag‘ topish usullarini diversifikatsiya qilish asosida emission daromad hajmini oshirish hisobiga banklarning kapitallashuv darajasini 25 foizgacha oshirish imkonи aniqlangan;

xususiy banklarning qo‘srimcha kapitali tarkibida mustaqil balansga ega bo‘Imagan sho‘ba korxonalariga qilingan moliyaviy qo‘yilmalar hajmini sho‘ba korxonalarining raqamli bank xizmatlari va fintex startaplar bilan integratsiyalashgan yangi formatda rivojlantirish orqali kapitallashuv darajasini ($5\% \leq KDXB \leq 10\%$) oshirish chegaralari asoslangan;

xususiy banklar foydasini reinvestitsiya qilishda “smart reinvestitsiya strategiyalari”, ya’ni o‘ziga qaytariladigan sarmoyali loyihalarga foydani qayta tiklash asosida moliyaviy oqimlarni maqsadli yo‘naltirish vositasida joriy moliyaviy yil foydasining 30 foizini bank ustav kapitaliga yo‘naltirish orqali bank kapitallashuv darajasini oshirish taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xususiy banklar kapitallashuv darajasini oshirishni mualliflik yondashuvi shakllantirilgan;

muomalaga uzoq muddatli subordinar qarzlarini chiqarish orqali tijorat banklari kapitallashuv darajasini oshirish va uning barqarorligini ta’minlash taklifi asoslangan;

xususiy banklar kapitalini oddiy aksiyalarni doimiy emissiya qilish hisobiga ko‘paytirish orqali ularning kapitallashuv darajasini oshirish taklifi shakllantirilgan;

xususiy banklarning fond bozoridagi ishtirokini faollashtirish orqali ularning o‘z mablag‘lari tarkibida emission daromad ulushini oshirish orqali bank tomonidan qo‘srimcha ravishda foyda olishga erishishi mumkinligi asoslangan;

xorijiy davlatlar amaliyotini tizimli tahlil qilish asosida mamlakatimizda xususiy banklarning kapitallashuv darajasini oshirishing mavjud muammolarini yechimlari bo‘yicha tavsiyalar asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi xususiy banklar kapitallashuv darajasini oshirishning tadqiq qilishni nazariy va amaliy muammolariga bag‘ishlangan mahalliy va xorijiy olimlar hamda mutaxassislarining ilmiy qarashlarini tadqiq qilinganligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, mamlakatimiz xususiy banklari hisobot va ma’lumotlarini tahlili bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar xususiy banklar kapitallashuv darajasini oshirish yuzasidan ilmiy apparatni boyitishi bilan belgilanadi. Xususiy banklar kapitallashuv darajasini oshirishda kapitalning yetarliliginini aniqlashda, kapital yetarliligi borasida tegishli usullar va modellarni ishlab chiqishda, shuningdek, bu borada amalga oshirilayotgan tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati xususiy banklari kapitallashuv darajasini oshirish, bular kapitali barqarorligini oshirish va kapital tarkibini o‘rganish amaliyotida, shuningdek, mazkur yo‘nalishda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xususiy banklar kapitallashuv darajasini oshirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

qo‘shimcha kapitalning asosiy tarkibi hisoblangan uzoq muddatli subordinar qarzni chiqarish amaliyotini “yashil subordinar obligatsiyalar” va “fintex asosidagi tokenlashtirilgan subordinar moliyalashtirish vositalari” hisobiga kengaytirish orqali xususiy banklar kapitallashuv darajasini ($3\% \leq KDXB \leq 5\%$) oshirish hamda resurs bazasini mustahkamlash taklifi “Davr bank” XATB kredit siyosatiga kiritilgan (“Davr bank” XATBning 2024-yil 25-sentabrdagi 21425-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etilishi bankning qo‘shimcha kapitali hajmini 15,65 mlrd. so‘mga oshishiga xizmat qilgan;

xususiy banklarning o‘z mablag‘lari manbalari tarkibida aksiyalarning an’anaviy chiqarilishi bilan birga innovatsion moliyaviy instrumentlar – konvertatsiya qilinadigan obligatsiyalar, steykling (staked) aktivlar orqali mablag‘ topish usullarini diversifikatsiya qilish asosida emission daromad hajmini oshirish hisobiga banklarning kapitallashuv darajasini 25 foizgacha oshirish taklifi XAB “Trastbank” va ATB “Mikrokreditbank” kredit hamda hisob siyosatida o‘z aksini topgan (XAB “Trastbank”ning 2024-yil 24-avgustdagli 01-04/2805-sonli hamda “Davr bank” XATBning 2024-yil 25-sentabrdagi 21425-sonli ma’lumotnomalari). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etilishi natijasida bankning aksiyalari, asosan oddiy aksiyalari bozor bahosini 15-17 foizga oshirishga erishilgan;

xususiy banklarning qo‘shimcha kapitali tarkibida mustaqil balansga ega bo‘limgan sho‘ba korxonalariga qilingan moliyaviy qo‘yilmalar hajmini sho‘ba korxonalarining raqamlı bank xizmatlari va fintex startaplar bilan integratsiyalashgan yangi formatda rivojlantirish orqali kapitallashuv darajasini ($5\% \leq KDXB \leq 10\%$) oshirish chegaralari asoslangan taklifi XAB “Trastbank” amaliyotiga joriy qilingan (XAB “Trastbank”ning 2024-yil 24-avgustdagli 01-04/2805-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi natijasida bank qoshida konsolidatsiyalashgan 2 ta “Trast Muamalat” MCHJ va “Trast Leasing” MCHJ sho‘ba korxonalarini tashkil etilib, ularga 2023-yilda 39 mlrd. so‘mlik moliyaviy mablag‘larni yo‘naltirilishi hisobidan bankning qo‘shimcha kapitalini 21,2 foiz bo‘lishiga erishilgan;

xususiy banklar foydasini reinvestitsiya qilishda “smart reinvestitsiya strategiyalari”, ya’ni o‘ziga qaytariladigan sarmoyali loyihalarga foydani qayta tiklash asosida moliyaviy oqimlarni maqsadli yo‘naltirish vositasida joriy moliyaviy yil foydasining 30 foizini bank ustav kapitaliga yo‘naltirish orqali bank kapitallashuv darajasini oshirish taklifi XAB “Trastbank” va “Davr bank” XATB hisob siyosatida o‘z aksini topgan (XAB “Trastbank”ning 2024-yil 7-avgustdagli 01-04/2805-sonli hamda “Davr bank” XATBning 2024-yil 25-sentabrdagi 21245-sonli ma’lumotnomalari). Ushbu taklifning joriy etilishi natijasida banklarning kapitali mos ravishda 2024-yilning 1-yanvar holatiga 2043,8 mlrd. so‘m hamda 1 006 mlrd. so‘mni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, 5 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola, shundan 3 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga olgan holda 113 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbliji va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining "**Xususiy banklarning kapitallashuv darajasini oshirishning iqtisodiy nazariy asoslari va xorij tajribasi**" nomli birinchi bobida muallif bank kapitallashuv darajasini oshirishning nazariy asoslari va iqtisodiy mohiyati, bank kapitali manbalari va uni kapitallashuv darajasini oshirishning ahamiyati va xorij tajribasi hamda bank kapitali barqarorligini oshirish to'g'risidagi nazariy qarashlarni o'rganib chiqqan hamda xususiy banklari kapitallashuv darajasini oshirishni ta'minlashning iqtisodiy yo'nalishlari e'tirof etilgan.

Xususiy banklar o'z faoliyatini yuritishida birinchi navbatda yetarli darajadagi sarmoyaga ega bo'lishi talab etiladi, bu esa yetarli darajada kapitalga egalik va barqaror daromad bazasiz amalga oshirishni tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu sababdan ham xususiy banklar kapitali bankni tashkil etish, ochish jarayonida, asosiy faoliyatni yuritish jarayonida Markaziy bank tomonidan belgilangan iqtisodiy normativ me'yorlarni bajarishida eng muhim manba va bank faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni qoplashda "himoya yostiqchasi" vazifasini bajaruvchi asosiy moliyaviy manba bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi sharoitda xususiy banklar kapitallashuv darajasini oshirish masalasi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Shunday ekan bank kapitalining mohiyatini qiyosiy tadqiq qilish, uni barqaror manbalar hisobidan shakllantirish va darajasini oshirish masalasi doimo dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Bugungi kunda ham xususiy banklarning kapitallashuv darajasini oshirishning mohiyati yuzasidan iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqinlarning mavjudligini inobatga olgan holda ushbu iqtisodiy tushuncha to'g'risida to'liqroq to'xtalib o'tmoqchimiz.

Xalqaro bank amaliyoti tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bozor munosabatlari sharoitida tijorat banklari kapitalining samaradorligini va uning yetarliliginini ta'minlamasdan turib, banklarning to'lov qobiliyatini mustahkamlash va aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini qozonish mushkul vazifalardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, bank kapitalining mavjudligi bankni tashkil topishi va faoliyat ko'rsatishi uchun eng asosiy zaruriyatdan biridir.

Iqtisodiy islohotlar va bozor munosabatlarining samaradorligini ta'minlashda xususiy banklar kapitalini shakllantirish va uni darajasini doimiy oshirib borish orqali erishish muhim o'rinni tutadi.

Bizning nazarimizda, xususiy banklarning kapitallashuv darajasini oshirishning iqtisodiy mohiyati xususida so'z yuritishdan oldin, "xususiy bank" atamasini aniqlab olish juda muhim. Xususiy bank bu – alohida shaxs yoki cheklangan umumiyligi sheriklar tomonidan tashkil etiladigan bank hisoblanadi. O'zbekiston bank amaliyotida, xususiy banklar ustav fondida (ustav kapitalida) muassislar (ishtirokchilar) bo'lgan jismoniy shaxslarning ulushi kamida ellik foizni tashkil etishi lozim bo'lgan banklar va boshqa kredit tashkilotlari, sug'urta tashkilotlari, shuningdek, faqat moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi o'zga yuridik shaxslardir⁵. Bunday banklar korporatsiya ko'rinishida bo'lmaydi. Bu banklarning tarixi Shvetsariya va Buyuk Britaniyaga borib taqaladi.

Tarixga nazar soladigan bo'lsak, Yevropada ko'plab xususiy banklar bor edi, lekin ularning aksariyat qismi korporatsiyaga aylantirilgan, shuning uchun ham bu termin (atama) o'z kuchini yo'qotmoqda. Bugungi kunda "xususiy bank" atamasi deganda, yuqori foydaga ega alohida shaxslar (high-net-worth individuals (HNWI) yoki private banking) uchun moliyaviy maslahatlar va xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan moliyaviy institutlar tushuniladi⁶.

Bank kapitallashuv darajasini oshirishning nazariy asoslarini bir qator olimlar tadqiq etgan holda turli qarashlar va nazariyalarni bayon etganlar. Jumladan, Bank kapitalining iqtisodiy mohiyati to'g'risida iqtisodchi olimlar tomonidan turli xil fikrlar bildirilgan. Jumladan, professor V.M.Usoskin bank kapitaliga bank moliyaviy resurslarining muhim va ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraydi⁷.

Mavjud iqtisodiy adabiyotlarda "Kapitallashuv darajasi" tushunchasi, uni oshirish masalalari xorijlik olimlar, mutaxassislar tomonidan o'rganilgan va tegishli ta'riflar berilgan.

M.E.Egamova o'zining tadqiqotida "Tijorat banklari faoliyatini sarmoyasiz, ya'ni yetarli darajada kapitallashuvsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu bois tijorat banklari kapitali dastlab banklarni ochish jarayonida, keyinchalik esa Markaziy bankning iqtisodiy normativlarini bajarishda asosiy mezon va bank faoliyatida kutilmaganda vujudga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni qoplashda "himoya yostiqchasi" sifatida muhim moliyaviy manba bo'lib xizmat qiladi" - degan tushunchani bergen⁸.

⁵ O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 17-dekabrdagi "Xususiy banklar va moliya institutlari hamda ularni faoliyatini kafolatlash to'g'risida"gi Qonuni.

⁶ Youssef Cassis, Philip Cottrell // The World of Private Banking // Ashgate Publishing, Ltd., 2009 – pp 32

⁷ Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: Управление и операции. -М: «Вазар-Ферро», 1994. С.92.

⁸ Egamova M.E. Tijorat banklari kapitallashuv darajasini oshirishda daromadning roli. Iqtisodiyot bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy). Dis. avtoreferati. – T.: TMI, 2019. – 28b.

A.S.Klimov tadqiqotlarida “kapitallashuv” tushunchasiga, “kredit tashkiloti kapitalining bozor qiymati haqida aksiyalar sonining ularning bozor qiymatiga ko‘paymasi sifatida”, deb ta’rif berilgan⁹.

Tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash mamlakat bank tizimining barqarorligini ta’minlashning zaruriy sharti hisoblanadi¹⁰. Bizga ma’lumki, tijorat banklari kapitali bank aksiyadorlari mablag‘lari va boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi¹¹.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan professor Sh.Abdullayeva va A.Omonovlar bank kapitaliga quyidagicha ta’rif berishgan: “Tijorat banklarining kapitali barqaror manba bo‘lib, bankning operatsion jarayonda kutilmaganda yuzaga keladigan zararlarni qoplash imkoniyatini beruvchi o‘ziga xos himoya vositasidir”¹².

Professor V.M.Usoskin bank kapitaliga bank moliyaviy resurslarining muhim va ajralmas tarkibiy qism sifatida qaraydi¹³. Ko‘rinib turibdiki, bu yerda kapital bank resurslarining muhim va tarkibiy qismi sifatida qaralishi natijasida asosiy vazifalari (himoya, tezkor va tartibga solish) e’tibordan chetda qolgan.

Rossiya olimlaridan Lavrushin O.I. “Bank ishi” kitobida “tijorat bank kapitali shakllanishi jihatidan, o‘z kapitali va jalb qilingan mablag‘larga bo‘linadi”¹⁴, deb aytib o‘tgan. Maslenchenkov Yu.S. “Finansovoy menejment v kommercheskom banke” kitobida: “bank kapitalini o‘z va jalb qilingan mablag‘lardan tashkil topadi”¹⁵, deb o‘rganadi. Bularning ishlaridan ko‘rishimiz mumkinki, bu iqtisodchi-olimlar resurslarning tarkibiy shakllanishiga ko‘p e’tibor berib, bank kapitalini faqat ikki guruhga bo‘lib o‘rganganlar.

Qisqa qilib aytganda, xususiy banklarning kapitali – bu bankka tegishli bo‘lgan mablag‘lar bo‘lib, ularga bank kapitali, taqsimlanmagan foyda, kelgusi davr daromadlari va hisob-kitoblar tizimidagi o‘z mablag‘lar kiradi. Demak, bankning o‘z mablag‘lari deb – tijorat faoliyatidagi moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun hosil qilingan turli fondlar hamda o‘tgan va joriy yil faoliyatidan olingan daromadni tushunish kerak.

Bankning o‘z mablag‘lari xususiy banklar faoliyatida muhim ahamiyat kasb etib, uning tarkibiga quyidagilar kiradi:

ustav kapitali;
zaxira kapitali;
maxsus fondlar;

⁹ Клинов А.С. Капитализация коммерческих банков: мировая практика и ее использование российскими банковскими структурами: диссертация кандидата экономических наук: Москва, 2008. -180 с.

¹⁰ Kurbanov, R.B. (2021). Improving the organization of the resource base of private banks of the republic of Uzbekistan. SAARJ Journal on Banking & Insurance Research, 10(5), 41-45.

¹¹ Bakhtiyorovich, K.R. (2020). Analysis of Financial Performance of Private Banks in Uzbekistan. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(05).

¹² Abdullayeva Sh. va Omonov A. “Tijorat banklarining kapitali va uni boshqarish” Monografiya T.: “Iqtisod-moliya”. B-110. 2007-yil.

¹³ Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: Управление и операции. –М.: “Vazar-Ferro”, 1994. С.92.

¹⁴ Лаврушин О.И. Банкское дело. Москва, «Финансы и Статистика», 2016 г. – С648.

¹⁵ Масленников Ю.С. Финансовый менеджмент в коммерческом банке. Москва, «Перспектива» 1996 г. С-255

moddiy rag‘batlantirish fondi;
taqsimlanmagan foyda¹⁶.

Bugungi kunda 100 dan ortiq mamlakatlarning, jumladan, respublikamiz tijorat banklari kapitalining tarkibini shakllantirishda va uning yetarlilik darajasini belgilashda Xalqaro Bazel qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan standartlardan asos sifatida foydalanilmoqda.

Bazel qo‘mitasi faoliyatining asosiy yo‘nalishi bank tizimi uchun o‘z kapitaliga sifat va miqdor jihatdan yetarli talablarni o‘rnatish yo‘li bilan mustahkam faoliyatni ta’minlashdan iboratdir. Bu o‘rinda asosiy hujjat bo‘lib, 1988-yilda Markaziy bank vakillari tomonidan ishlab chiqilgan va 1993-yilda amaliyotga joriy qilingan kapital va risk bo‘yicha Bazel-I kelishuvi hisoblanib, unda kapital yetarliligi me’yorini hisoblash uslubi keltirilgan.

1988-yilda Xalqaro Bazel qo‘mitasi tomonidan bank kapitali yetarliligiga doir kelishuv (Bazel I) ishlab chiqildi va unda kapital yetarlilagini hisoblash maqsadida regulyativ kapital (umumi kapital) tushunchasi amaliyotga joriy qilindi. Regulyativ kapital asosiy va qo‘shimcha kapitaldan tashkil topib, bank faoliyatini boshqarish va iqtisodiy me’yorlarning hisob-kitobini o‘tkazish maqsadida hisoblash yo‘li bilan aniqlanadigan bank kapitalidir.

Bazel-II talablarini joriy etish bo‘yicha Markaziy bank asosiy rol o‘ynaydi. Yangi talablar Markaziy bank tomonidan belgilangan me’oriy hujjatlarda, risk - menejment usullarida va texnologiyalarda ham aks ettirilishi lozim.

Rivojlangan davlatlar bank amaliyoti tajribalarini o‘rganish va tadqiq qilish natijasida tijorat banklari kapitali manbalarini shakllantirish orqali bank kapitali barqarorligini ta’minlashda uning manbalari va ulushi qanday bo‘lishini ilmiy jihatdan asoslashga harakat qildik.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari kapitali manbalari turli-tuman bo‘lib, bozor instrumentlaridan samarali foydalanadi. Ularning tajribalarini ijobiy jihatlari sifatida bank kapitali tarkibidagi taqsimlanmagan foyda, emission daromad va uzoq muddatli subordinar majburiyatlarni mamlakatimiz tijorat banklari faoliyatida joriy etilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Dissertatsiya ishining **“Xususiy banklar kapitallashuv darajasini oshirishni ta’minlashning asosiy tendensiyalari”** nomli ikkinchi bobida xususiy banklar kapitallashuv darajasining amaldagi holati tadqiq va tahlil qilingan, shuningdek, mazkur bobda Xususiy banklar kapitallashuv darajasini oshirishda iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish holati va unga ta’sir qiluvchi ichki va tashqi omillar tahlili keltirilgan bo‘lib, ularni tahlili natijasida qator xulosa va tavsiyalar shakllantirilgan.

Banklar paydo bo‘lgandan boshlab ularning dastlabki sarmoyasi, kapitali darajasiga muhim masala sifatida e’tibor qaratilgan. 2008-yildan boshlangan jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi bank tizimining barqarorligini ta’minlashda ularning kapitallashuv darajasini oshirib borish eng muhim iqtisodiy masalalardan biri ekanligini yana bir bor isbotladi. Quyida tijorat banklari asosiy kapitali tarkibi va dinamikasi haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

¹⁶ U.O‘.Azizov va b. Bank ishi. Darslik. - T.: Iqtisod-moliya, 2016. 139 b.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, xususiy banklarning ustav kapitali o'z mablag'lari tarkibida 2019-yil 31-yanvar holatiga 68,6 foizni tashkil etib, 2022-yil 31-dekabr holatiga nisbatan 0,2 foizga oshgan va bunga mos ravishda ustav kapitali tahlil etilayotgan davr mobaynida mutloq summada oshib bormoqda. Bizning fikrimizcha, xususiy banklarning o'z mablag'lari tarkibida ustav kapitali ulushini oshib borishini ijobiy baholagan holda, uni pasayishiga yo'l qo'maslik lozim, chunki ushbu manba, birinchidan, barqaror manba hisoblanadi, ikkinchidan, jalg qilingan mablag'larga nisbatan arzon moliyaviy mablag'lardandir. Shuningdek, mamlakatimiz xususiy banklar o'z mablag'lari tarkibida qo'shilgan kapital ulushini ham pasayishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Tahlil davrida banklarning qo'shilgan kapitalining bank kapitalidagi ulushi ham kam miqdorda 2019-yilda 2,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yil 31-dekabr holatiga bu ko'rsatkich 0,2 foiz punktga oshib 2,3 foizni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich xalqaro bank amaliyotiga nisbatan past darajada bo'lib, bu albatta mamlakatimiz xususiy banklarining aksiyalarini asosan o'z ta'sischilari hisoblangan jismoniy shaxslarga sotishi bilan bog'liqligi va oldi-sotdi jarayoni shaffofsiz ekanligidan dalolat beradi.

1-jadval

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xususiy banklar o'z mablag'lari tarkibi va dinamikasi¹⁷

(1-yanvar holatiga, jamiga nisbatan foizda)

O'z mablag'lar tarkibi	2019 y.	2020y.	2021y.	2022y.	2023y.
Ustav kapitali	65,0 %	63,7 %	66,5 %	66,5 %	65,2 %
Qo'shilgan kapital	2,1 %	3,8 %	0,8 %	1,8 %	2,3 %
Zaxira kapitali	9,4 %	9,5 %	8,9 %	8,9 %	9,2 %
Taqsimlanmagan foyda	23,5 %	22,9 %	23,8 %	22,8 %	23,3 %
Jami o'z mablag'lari	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mamlakatimiz tijorat banklari kapitali tarkibida maxsus zaxira salmoqli ulushga ega bo'lib turibdi, maxsus zaxira kapital tarkibi o'rganilganda uning asosiy qismi devalvatsiya zaxirasidan iborat ekanligi ma'lum bo'ldi. Masalan, 2-jadvalda tijorat banklari asosiy kapitali tarkibida maxsus zaxira ulushi 2017-yil 16,3 foizni tashkil etgani holda 2020-yilda 8,9 foizdan iborat bo'lgan yoki shu davr ichida 7,4 punktga kamaygan bo'lsada, maxsus zaxiraning ulushi sezilarli darajada ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga banklarning taqsimlanmagan foydasi ham beqaror bo'lsada, ma'lum darajada ulushga egaligini qayd etish lozim.

Bizning fikrimizcha, tijorat banklari jami kapitali tarkibida ustav kapitali ulushini pasayishiga yo'l qo'ymaslik lozim, chunki ushbu manba, birinchidan, barqaror manba hisoblanadi, ikkinchidan, jalg qilingan mablag'larga nisbatan arzon moliyaviy mablag'lardandir. Shuningdek, mamlakatimiz tijorat banklari kapitali tarkibida qo'shimcha kapital ulushini ham pasayishiga yo'l qo'ymaslik

¹⁷ www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

lozim. Tahlil davrida banklarning qo'shimcha kapitalining bank kapitalidagi ulushi ham kam miqdorda 2017-yilda 0,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2018- va 2019-yil 1-yanvar holatiga kelib bu ko'rsatkich 0,2 punktga kamayib 0,3 foizni, ya'ni ushbu manbaning ulushi juda past darajani tashkil etadi, bu albatta mamlakatimiz tijorat banklari aksiyalarining moliya bozorlarida nufuzi pastligidan va oldi-sotdi jarayoni shaffofsiz ekanligidan dalolat beradi.

Umuman, tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash mamlakat bank tizimining barqarorligini ta'minlashning zaruriy sharti hisoblanadi. Bizga ma'lumki, tijorat banklarning kapitallashuv darajasini oshirishning asosiy yo'llaridan biri – bu bank ustav kapitalini oshirishdir. Respublikamizda keyingi yillarda tijorat banklari ustav kapitalini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aynan xususiy banklarda bu masalaga e'tibor boshqacha. Buni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin (2-jadval).

2-jadval

Xususiy banklarning jami ustav kapitali miqdori (mlrd. so'm)¹⁸

Banklar nomi	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2023-yilda 2019-yilga nisbatan o'sishi	
						(+;-)	%
XAB "Trastbank"	227	362	362	562	1001,8	774,8	341,3
XATB "Orient Finans"	562	769	903	1106	2110	1548	275,3
XATB "Davr-bank"	163	170	344	400	400	237	145,4
XATB Ravnaq-bank"	100	100	100	100	100	0	0,0
Jami	1052	1401	1709	2168	3612		2560

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, xususiy banklarimizning ustav kapitalini 2023-yilda 4 ta tijorat bankning jami ustav kapitali miqdori 3612 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 2,4 baravarga oshgan. Bu albatta ijobiy holat bo'lsada, XATB "RAVNAQ-BANK"ning oxirgi 5 yilda ustav kapitali 100 mlrd. so'mni tashkil etganligi, yillar davomida oshirishga bank tomonidan harakat qilinmaganligini to'g'ri, deb bo'lmaydi. Sababi 2025-yil 1-apreldan barcha banklar ustav kapitalini eng kam miqdori 500 mlrd. so'mni tashkil etishi qonunchilik bilan belgilanmoqda¹⁹.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xususiy banklar o'zlarining ustav kapitalini oshirish imkoniyatlarini izlab topishlari kerak. Aks holda, tijorat banklari faoliyatini davom ettirishini so'roq ostida qoldiradi.

Bundan ko'rinishdiki, xususiy banklarimiz tez muddatda ustav kapitalini miqdorini keskin oshirishlari kerak. Bundan tashqari, tijorat banklari tomonidan chiqariladigan aksiyalarini joylashtirish bilan bog'liq muammolar mavjud. Banklar tomonidan taklif etilayotgan dividendlarning o'rtacha yillik stavkasi banklardagi

¹⁸ <http://www.cbu.uz> –O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti ma'lumotlari


¹⁹ O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2019-yil 5-noyabr "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580-sonli qonuni.

depozit stavkalari bilan deyarli bir xil, bundan tashqari ular o‘zgaruvchan bo‘lib, bank faoliyati bilan bog‘liq muammolar natijasida dividendlar miqdori kamayib ketishi mumkin. Yana xususiy banklarning kapitali tarkibida bo‘lgan emission daromadlar deyarli sezilmaydigan darajada. Bu holat banklarimiz aksiyalari qimmatbaho qog‘ozlar bozorida deyarli nominal bahosi miqdorida sotiladi. Ularning bozor (real) bahosiga ta’sir etuvchi omillari yo‘qligicha qolmoqda.

Shuningdek, tahlil qilingan davr mobaynida tijorat banklari jami kapitali tarkibida subordinar qarz majburiyatlari hamda konsolidatsiyalashgan sho‘ba korxonalarga qilingan qo‘yilmalar yuzaga kelmagan.

Hozirgi kunda tijorat banklarining qo‘shimcha kapitalning asosiy tarkibi hisoblangan uzoq muddatli subordinar qarzni chiqarish amaliyotini “yashil subordinar obligatsiyalar” va “fintex asosidagi tokenlashtirilgan subordinar moliyalashtirish vositalari” hisobiga kengaytirish orqali xususiy banklar kapitallashuv darajasini ($3\% \leq KDXB \leq 5\%$) oshirish va barqarorligiga erishishning zamonaviy instrumentlaridan hisoblanadi.

Xususiy banklarda subordinar qarz majburiyatlarining juda kam miqdorda ekanligi ularning uzoq muddatli kreditlar bozoridagi mavqeining zaifligidan dalolat beradi. Chunki subordinar qarz majburiyatlari xususiy banklarga uzoq muddatli resurslarni jalb qilishning qulay va kam xarajatli vositasi hisoblanadi. Bundan tashqari, kelajakda xususiy bank ustav kapitalini oshirish uchun ishonchli mijozlarning subordinar qarz majburiyatlarini bank aksiyalariga o‘tkazish mumkin.



1-rasm. Tijorat banklar tomonidan jalb qilingan subordinar qarzlari hajmi²⁰ (01.10.2024-yil holatiga, mlrd. so‘mda)

1-rasm ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yil 1-oktabr holatiga mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan jalb qilingan subordinar qarz majburiyatlarining asosiy qismi,

²⁰ www.cbu.uz - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

yirik tijorat banklari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Tahlil qiladigan bo‘lsak, jami jalb qilingan subordinar qarz majburiyatları hajmi 12746 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Xususiy banklar ichida birgina XATB “Davr bank” 178 mlrd. so‘mlik subordinar qarz majburiyatini jalb etgan. Uning bozordagi salmog‘i 1,4 foizni tashkil etmoqda. Fikrimizcha, respublikamizdagi qolgan xususiy banklar ham bu amaliyotdan foydalanib o‘zlarining regulyativ kapitali yetarligini oshirib olishlari kerak. Shuning uchun ham, xususiy banklar tomonidan uzoq muddatli subordinar qarz majburiyatlarini jalb etish amaliyotini kengroq joriy etilishi maqsadga muvofiqdir. Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining “Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish qoidalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar qiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘i qabul qilindi. Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish qoidalariga kiritilayotgan qo‘shimchalarga muvofiq: yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan loyihalar uchun korporativ obligatsiyalarni chiqarishga yo‘l qo‘yiladi;

yashil korporativ obligatsiyalarni chiqarish va muomalasi bo‘yicha uslubiy qo‘llanma Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan tasdiqlanadi.

Yashil korporativ obligatsiyalarni chiqarish uchun qo‘shimcha ravishda quyidagilar taqdim etiladi:

Xalqaro kapital bozorlari assotsiatsiyasi (ICMA) tomonidan vakolat berilgan yoki Iqlim obligatsiyalari tashabbusi (CBI) tomonidan tasdiqlangan yoxud Yevropa qimmatli qog‘ozlar va bozorlar boshqarmasi (ESMA) tomonidan ro‘yxatdan o‘tgan ixtisoslashtirilgan tashkilotlardan asos dasturi bo‘yicha yashil standartlarga muvofiqlik sertifikatini olganlik to‘g‘risidagi xulosa nusxasi, shuningdek yashil obligatsiyalarni chiqarish uchun asos dasturi;

korporativ obligatsiyalarni joylashtirishdan tushgan mablag‘lardan foydalanish maqsadi va ularning O‘zbekiston Milliy “yashil” taksonomiyasi va/yoki boshqa ekvivalent taksonomiyalar talablariga muvofiqligi bo‘yicha emitent rahbari va bosh buxgalterining imzolari bilan tasdiqlangan ma’lumotnomasi.

Shuningdek, obligatsiya chiqarish to‘g‘risidagi qaror va emissiya risolasida: obligatsiyalarni joylashtirishdan tushgan mablag‘larni Milliy yashil taksonomiya va/yoki boshqa ekvivalent taksonomiyalar talablariga muvofiq ishlatish maqsadi to‘g‘risida ma’lumot;

Milliy yashil taksonomiya va/yoki boshqa ekvivalent taksonomiyalar talablari doirasida erishiladigan rejlashtirilgan natijalar (KPI) to‘g‘risida ma’lumot;

Yashil standartlarga muvofiqlik sertifikatining mavjudligi, shuningdek, bunday sertifikatni bergen tashkilot to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks ettirilishi lozim.

Hujjat Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasida davlat tilida e’lon qilingan va 2024-yil 10-iyundan kuchga kirdi.

Eslatib o‘tamiz, 2023-yil oktyabr boshlarida O‘zbekiston ilk bor 4,25 trln so‘m miqdoridagi yashil suveren xalqaro obligatsiyalar hamda 660 mln dollar miqdoridagi xalqaro obligatsiyalarni London fond birjasida joylashtirgandi.

So‘mda chiqarilgan suveren xalqaro obligatsiyalar MDH davlatlari ichida ilk “yashil” suveren obligatsiyalar hisoblanadi.

Xalqaro banklar amaliyotida tijorat banklari qo‘sishimcha kapitali tarkibida *konsolidatsiyalashgan sho‘ba korxonalarini* tashkil etish uchun shakllantirilgan manbasi mavjud bo‘lib, ushbu ma nba tijorat banklari qoshida mustaqil balansga ega bo‘limgan moliyaviy korxonalarini tashkil etish uchun ajratilgan moliyaviy mablag‘lar hisobiga vujudga keladi.

Xalqaro Bazel qo‘mitasining andozalari bo‘yicha konsolidatsiyalashgan sho‘ba korxonalarini sifatida bank qoshida tashkil etiladigan, mustaqil balansga ega bo‘limgan lizing, faktoring, trast, forfeyting kompaniyalari nazarda tutiladi. Ushbu kompaniyalarini tashkil etish uchun tijorat banklari zarur qo‘sishimcha moliyaviy mablag‘larga ega bo‘lishlari talab etiladi.



2-rasm. XAB Trastbank lizing sho‘ba korxonalar faoliyati to‘g‘risida ma’lumot²¹

Rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, XAB Trastbank o‘z qoshida 2 ta “Trast Leasing” MCHJ va “Trast Muamat” MCHJ sho‘ba korxonalarini tashkil etgan. “Trast Leasing” MCHJ 2011-yildan buyon o‘z faoliyatini yuritib kelayotgan bo‘lsa, “Trast Muamat” MCHJ esa 2022-yildan beri faoliyat olib bormoqda. Kompaniyalarning asosiy faoliyati keng ko‘lamli samarali lizing operatsiyalarini taklif etish orqali biznesni kengaytirish strategiyasini amalga oshirish hisoblanadi. XAB Trastbank 2024-yilda “Trast Leasing” MCHJ va “Trast Muamat” MCHJ ustav kapitalini oshirish va moliyaviy qo‘yilmalarini ko‘paytirish maqsadida

²¹ XAB Trastbank web-sahifasidagi moliyaviy hisobotlari ma’lumotlari asosida tuzildi.

265 mlrd. so‘m mablag‘ yo‘naltirildi²². Buni quyidagi 3-jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

Bizning amaliyotimizda konsolidatsiyalashgan sho‘ba korxonalarga qilingan moliyaviy qo‘yilmalarga yo‘naltirgan mablag‘larni bevosita xususiy bankning qo‘shimcha kapitali tarkibiga olib borish tartibi mavjud. Bunda albatta bankning sho‘ba korxonalarini raqamli bank xizmatlari va fintex startaplar bilan integratsiyalashgan yangi formatda rivojlantirish orqali kapitallashuv darajasini (5%≤KDXB≤10%) oshirish zarurligi yuzaga chiqadi. Shuni e’tiborga olgan xolda, 3-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, XATB “Trastbank” qoshida konsolidatsiyalashgan “Trast Muamalat” MCHJ va “Trast Leasing” MCHJ sho‘ba korxonalariga oxirgi 6 yilda bank tomonidan yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi yildan yilga oshib borayotganini ko‘rishimiz mumkin. 2019-yil bank tomonidan 6,6 mlrd. so‘m miqdorida moliyaviy qo‘yilma yo‘naltirilgan bo‘lsa, 2024-yil yakunida bu ko‘rsatkich sezilarli darajada oshirilib 264,89 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Bu albatta, ijobiy holat hisoblanadi. Sababi, banklar qancha ko‘p miqdorda moliyaviy qo‘yilmalarni o‘zlarining sho‘ba korxonalariga yo‘naltirsa, buning natijasida keladigan foyda bankning qo‘shimcha kapitalini ko‘paytirib, kapital yetarliligi darajasini oshiradi.

3-jadval

XATB “Trastbank” qoshida konsolidatsiyalashgan “Trast Muamalat” MCHJ va “Trast Leasing” MCHJ sho‘ba korxonalariga oxirgi yillarda bank tomonidan yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi (mln. so‘mda)²³

Ko‘rsatkichlar	Sho‘ba korxonalar nomi	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Bank tomonidan yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi	“Trast Leasing” MCHJ	6600	39600	87866	116203	145690	164890
	“Trast Muamalat” MCHJ	-	-	-	6000	45000	100000
Jami	6600	39600	87866	122203	190690	264890	


Yuqoridagilarni e’tiborga olgan holda, xususiy banklar kapitali tarkibida konsolidatsiyalashgan sho‘ba korxonalarga qilingan qo‘yilmalar barqaror manba ekanligini e’tiborga olib, ushbu manbaning hajmini oshirish bo‘yicha xususiy banklar bosqichma-bosqich ishlarni tashkil qilishlari va uning hajmini kamida o‘n foizga yetkazishi lozim.

Tahlillar va o‘rganishlar natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, tijorat banklari kapitallashuv darajasini oshirishda zamonaviy yo‘llarni, yanayam soddarоq qilib aytadigan bo‘lsak, xorijda o‘zining ijobiy natijasini bergen tajribalarni kengroq

²² XAB Trastbank web-sahifasidagi moliyaviy hisobotlari ma’lumotlari asosida tuzildi.

²³ Germaniya Doychi banki va XAB Trastbank web-sahifasidagi moliyaviy hisobotlari ma’lumotlari asosida tuzildi.

qo'llashi lozim. Xususan, banklarning o'z mablag'lari tarkibidagi qo'shilgan kapitalning hajmini oshirish orqali ularning kapitallashuv darajasini oshirish va barqarorlikka erishish maqsadga muvofiq. Quyidagi jadvalda Germaniya Doychi banki va XAB Trastbank o'z mablag'lari (kapitali) tarkibi keltirilgan.



3-rasm. Germaniya Doychi banki va XAB Trastbank o'z mablag'lari (kapitali) tarkibi²⁴ (2024-yil 1-yanvar holatiga, foizda)

3-rasmdan ko'rinib turibdiki, Germaniya Doychi banki va XAB Trastbank o'z mablag'lari (kapitali) manbalarining vujudga kelish nuqtayi nazardan ulushlari o'rtasida keskin farq mavjud. Masalan, Germaniya Doychi bankining kapitali tarkibida ustav kapitali 13,3 foizni tashkil etgani holda qo'shimcha kapitalining ulushi 52,8 foizdan iborat b'ilgan, shuningdek, bankning zaxira kapital darajasi ham salmoqli daraja 17,1 foizni tashkil etgan. Kapitalning aynan shu manbalarini shakllanish holatini XAB Trastbank misolida ko'radigan bo'lsak, ushbu bankda manzara umuman boshqacha ko'rinishni olgan. Xususan, bankning ustav kapitali 49,0 foizni tashkil etgani holda, manbalar ichida eng yuqori salmoqni tashkil etgan, qo'shimcha kapital esa 25,3 foizni tashkil etgani ko'rinib turibdi. Shu bilan birga, bankning taqsimlanmagan foydasi ulushi 17,1 foizni tashkil etmoqda. Yuqoridagi rasm ma'lumotlari asosida masalaning jiddiy jihatlariga e'tibor beradigan bo'lsak, mamlakatimizning boshqa xususiy banklar o'z mablag'lari tarkibida ham aynan shu muammo mavjud.

Germaniya Doychi bank va XAB Trastbanklari o'z mablag'lari manbalarining shakllantirish va ularning ulushi ko'p yoki kamligining qanday ahamiyat kasb etishi yuzasidan quyidagilarni ta'kidlamoqchimiz:

xususiy banklar aksiyadorlarga dividend to'lash uchun bankning foydasini katta qismini sarflanmaydi. Chunki, dividendlar bank tomonidan muomalaga chiqarilgan aksiyalarning nominal bahosi bo'yicha to'lanadi, shunday ekan Doychi bankda kapitalning yetarliligi qo'shimcha kapital hisobiga ta'minlanmoqda, shu bilan birga dividendga to'lanadigan foydaning asosiy qismi bankning ixtiyorida qoladi;

²⁴ Germaniya Doychi banki va XAB Trastbank web-sahifasidagi moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzildi.

qo'shimcha kapital ulushining yuqoriligi bankning hamkorlari, investorlari va aksiyadorlari tomonidan qarorlarni qabul qilishga asos bo'lib xizmat qiladi, chunki bu ma'lumotlar bank aksiyalarining moliya bozorida o'ta jozibali va bankning moliyaviy jihatdan barqarorligini anglatadi;

banklarning o'z mablag'lari tarkibidagi manbalar ulushi past yoki yuqoriligiga qarab banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati samarali tashkil etilgan yoki etilmaganligini bilishimiz mumkin;

bank kapitalini oshirish bilan bog'liq bo'lgan sharoitda emissiya qilingan aksiyalarning nominal bahosini bir necha bor yuqoriligi ularga qo'shimcha emissiya qilmasdan mazkur muammoni hal qilish imkonini beradi.

Bizning fikrimizcha, mamlakatimiz xususiy banklar o'z mablag'lari tarkibida qo'shimcha kapital manbasining shakllanmasligining asosiy sabablaridan biri ularning kapitalini tarkibi asosan an'anaviy manbalardan tashkil etilganligi va bu xususiy banklarni qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmayapti.

Bunda, xususiy banklar kapitallashuv darajasini oshirish imkoniyatlaridan to'liqroq foydalanish lozim. Mamlakatimiz xususiy banklarining kapitallashuv darajasi tijorat banklariga nisbatan bank kapitali bazasi nisbatan zaif bo'lib, uning barqarorligini oshirishning qator imkoniyatlari mavjud.

Bizning nazarimizda, mamlakatimiz xususiy banklari ustav kapitalini oshirish imkoniyatlari ko'p qirrali bo'lib, ulardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish lozim.

Kapitallashuv darajasining yana bitta usuli xususiy banklarning joriy yil foydasini uzluksiz ravishda bankning kapitaliga yo'naltirib borish hisoblanadi. Bunda albatta xususiy banklarni dividend siyosatiga ham e'tibor qaratish lozim.

4-jadval

XAB "Trastbank" foydasini taqsimlanishi tahlili²⁵

Yakunlangan yil	Taqsimlananishi lozim bo'lgan foyda, mln so'mda	Taqsimlangan foyda, mln so'mda		
		Oddiy aksiyalar bo'yicha dividendga	Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendga	Ustav kapitalini oshirishga
2019	184496,5	98219,2	3,45	86273,9
2020	300512,6	228380,2	3,45	72129,0
2021	433576,2	90056,8	3,45	343516,0
2022	592053,1	458673,5	3,45	133376,2
2023	690743,9	499164,3	3,45	191576,2

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga e'tibor qaratadiga bo'lsak, oxirgi besh yilda XAB "Trastbank"da aksiyadorlarga dividendlar to'lanishidan tashqari, bankning sof foydasi ustav kapitali miqdorini oshirishga ham yo'naltirilgan. Ayniqsa, 2023-yilda bank 690,7 mlrd. so'm miqdoridagi sof foydasining 30 foiz

²⁵ XAB Trastbank web-sahifasidagi moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzildi.

ulushi bankning ustav kapitalini oshirishga yo‘naltirilgan. Bular o‘z navbatida, xususiy banklar kapitali tarkibida joriy yilning sof foydasi hisobidan ustav kapitalining ortishiga ijobiy zamin tayyorlaydi. Shundan kelib chiqib, xususiy banklar foydasini reinvestitsiya qilishda “smart reinvestitsiya strategiyalari”, ya’ni o‘ziga qaytariladigan sarmoyali loyihalarga foydani qayta tiklash asosida moliyaviy oqimlarni maqsadli yo‘naltirish vositasida joriy moliyaviy yil foydasining 30 foizini bank ustav kapitaliga yo‘naltirishlari kerak.

Dissertatsiya tadqiqotida xususiy banklar faoliyati asosiy ko‘rsatkichlarini ko‘p omilli ekonometrik modellashtirish va tahlil qilish amalga oshirildi. Modeldagi natijaviy omil xususiy bankning kapitali, mlrd. so‘m (Y) olingan, ta’sir etuvchi omillar esa bankning ustav kapitali, mlrd. so‘m (X_1), ROE koeffitsiyenti (sof foydani kapitalga nisbati), % (X_2), bankning sof foydasi mlrd. so‘m (X_3), bankning subordinar qarzi mlrd. so‘m (X_4) va bankning emission kapitali mlrd. so‘m (X_5) olingan.

Dastlab, bank ma’lumotlari asosida iqtisodiy tadqiqotlar o‘tkazish uchun biz 2012–2023-yillardagi xususiy bank faoliyati ko‘rsatkichlari asosida tavsifiy statistika o‘tkazdik (o‘zgaruvchilarning o‘lchov birliklari har xil bo‘lgani uchun ularni logarifmlash yordamida yagona o‘lchov birligiga keltiramiz). Ta’rifiy statistika natijalari quyidagi 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval
Omillar bo‘yicha tavsifiy statistika²⁶

	xususiy bankning kapitali (logY)	bankning ustav kapitali (logX ₁)	ROE koeffitsienti (logX ₂)	bankning sof foydasi (logX ₃)	bankning subordinar qarzi (logX ₄)	bankning emission kapitali (logX ₅)
Mean	3.044380	8.680041	1.385143	2.429552	0.744102	7.596849
Median	3.082774	8.757885	1.403148	2.550864	0.000000	7.787846
Maximum	3.776483	9.545534	1.571243	3.172515	2.045323	8.715260
Minimum	2.305136	7.831504	1.172895	1.577492	0.000000	6.271545
Std. Dev.	0.508573	0.579296	0.105659	0.578232	0.929742	0.794295
Skewness	-0.012764	-0.103361	-0.445294	-0.217550	0.405302	-0.349442
Kurtosis	1.547916	1.637933	2.918344	1.581432	1.255205	1.804986
Jarque-Bera	5.054599	4.948980	3.399907	3.100824	4.850693	3.958249
Probability	0.000197	0.006222	0.008769	0.005767	0.005963	0.007193
Sum	36.53257	104.1605	16.62172	29.15462	8.929228	91.16219
Sum Sq. Dev.	2.845109	3.691423	0.122802	3.677874	9.508621	6.939953
Observations	12	12	12	12	12	12

Tavsifiy statistika natijalari bo‘yicha ko‘p omilli ekonometrik modelga kiruvchi barcha omillarning normal taqsimotga bo‘ysunishi aniqlandi. Omillarning normal taqsimotga bo‘ysunishi Jak-Bera mezoni orqali aniqlandi. Bunda barcha omillarning ehtimolligi (*probability*) 5 foizdan kichik ekanligi tasdiqlandi.

Ko‘p omilli ekonometrik modelga uchun omillarni tanlash uchun korrelyatsion tahlil o‘tkazildi. Korrelyatsion tahlilda xususiy va juft korrelyatsiya

²⁶ XAB “Trastbank” XATB “Davr bank” ma’lumotlari asosida Eviews 10 dasturida muallif hisob-kitoblari

koeffitsiyentlari hisoblandi. Xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari – bu natijaviy omil ($\log Y$) va unga ta'sir etuvchi omillar ($\log X_i$) o'rtasidagi bog'lanishlar zichligini ko'rsatadi. Demak, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari natijaviy omil – sof foizli daromad (Y) va ta'sir etuvchi omillar (X_i) o'rtasida turli xil bog'lanishlar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Masalan, xususiy bankning kapitali ($\log Y$) va bankning ustav kapitali ($\log X_1$) o'rtasida bog'lanish zichligi 0,9930 ga teng. Bu esa ushbu ikki omil o'rtasida zich bog'lanish mavjudligini ko'rsatadi. Xuddi shuningdek, xususiy bankning kapitali ($\log Y$) bilan ROE koeffitsiyenti (sof foydani kapitalga nisbati) ($\log X_2$) o'rtasida o'rtacha bog'lanish mavjud ekan, ya'ni ular o'rtasidagi xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentining qiymati 0.6055 teng ekan. Xususiy bankning kapitali ($\log Y$) va bankning sof foydasi ($\log X_3$) o'rtasida ham zich bog'lanish mavjud. Ushbu omillar o'rtasida korrelyatsiya koeffitsiyenti 0.9893 ga teng. Xususiy bankning kapitali ($\log Y$) va bankning subordinar qarzi ($\log X_4$) o'rtasida ham zich bog'lanish mavjud. Ushbu omillar o'rtasida korrelyatsiya koeffitsiyenti 0.8889 ga teng. Xususiy bankning kapitali ($\log Y$) va bankning emission kapitali ($\log X_5$) o'rtasida ham zich bog'lanish mavjud. Ushbu omillar o'rtasida korrelyatsiya koeffitsiyenti 0.8889 ga teng (5-jadval).

Ko'p omilli ekonometrik tahlilda ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikollinearlik mavjud bo'lmasligi lozim. Agar ikkita ta'sir etuvchi omil o'rtasida juft korrelyatsiya koeffitsiyenti qiymati 0,7 dan katta bo'lsa, multikolleniarlik mavjud deyiladi. Korrelyatsion matritsadagi juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak, ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikolleniarlik mavjud emas.

Keyingi bosqichda O'zbekiston Respublikasi xususiy banklari kapitalining ko'p qirrali iqtisodiy modelini yaratamiz. Umuman olganda, multifaktorial ekonometrik model quyidagi ko'rinishga ega:

$$\log y = \log \beta_0 + \beta_1 \log x_1 + \beta_2 \log x_2 + \dots + \beta_n \log x_n + \varepsilon, \quad (3)$$

bu yerda: $\log y$ – natijaviy omil; $\log x_i$ - ta'sir etuvchi omillar; ε - tasodifiy xato.

Ko'p omilli ekonometrik modeldagi (3) noma'lum $\beta_0, \beta_1, \beta_2, \dots, \beta_n$ parametrlarini aniqlashda "eng kichik kvadratlar usuli" qo'llaniladi. Ko'p omilli ekonometrik modelning noma'lum parametrlarini hisoblashda EViews dasturidan foydalanamiz.

Ko'p omilli ekonometrik modelning analitik ko'rinishini keltiramiz:

$$\log y = \log(2,0154) + 0,0025 \log(x_1) + 1,0029 \log(x_2) + 1,0018 \log(x_3) - 0,000036 \log(x_4) + 0,000821 \log(x_5) \quad (4)$$

Hisoblangan (4) ko'p omilli ekonometrik model shuni ko'rsatadi, xususiy banklar ustav kapitali ($\log X_1$) o'rtacha bir foizga ortsa, bankning kapitali ($\log Y$) o'rtacha 0,0025 foizga ortishi mumkin ekan. Xususiy banklarning ROE koeffitsiyenti (sof foydani kapitalga nisbati) ($\log X_2$) o'rtacha bir foizga ortishi, bankning kapitalini ($\log Y$) o'rtacha 1,0029 foizga ortishiga olib kelar ekan. Xususiy banklarning sof foydasi ($\log X_3$) o'rtacha bir foizga ortishi, bank kapitalini

($\log Y$) o'rtacha 1,0018 foizga ortishiga olib kelishi mumkin ekan. Xususiy banklarning subordinar qarzi ($\log X_4$) o'rtacha bir foizga ortishi, bank kapitalini ($\log Y$) o'rtacha 0,000036 foizga kamayishiga olib kelishi mumkin ekan hamda xususiy banklarning emission kapitali ($\log X_5$) o'rtacha bir foizga ortishi, bank kapitalini ($\log Y$) o'rtacha 0,00082 foizga ortishiga olib kelishi kuzatilmoqda.

Ko'p omilli ekonometrik model (4) sifatini tekshirish uchun determinatsiya koeffitsiyentini tekshiramiz. Hisoblangan determinatsiya koeffitsiyenti (R^2 - R-squared) 0,9276 ga teng. Bu esa xususiy banklarning sof foizli daromadi ($\log Y$) 92,76 foizi (4) ko'p omilli ekonometrik modelga kiritilgan omillardan tashkil topishini ko'rsatmoqda. Qolgan 7,24 foizi (1,0-0,9276) esa hisobga olinmagan omillar ta'siridir.

Ko'p omilli ekonometrik modelning statistik ahamiyatliligin (4) yoki o'rganilayotgan jarayonga mos kelishini Fisherning F-mezoni yordamida aniqlaymiz. Ahamiyatlik darajasi $\alpha = 0,05$ va ozodlik darajalari $k_1 = 5$ va $k_2 = 12 - 5 - 1 = 6$ dan kelib chiqib, F-mezonning jadval qiymati $F_{jadval} = 4,39$ ga teng. F-mezonning hisoblangan qiymati $F_{hisob} = 440,6269$ ga teng. $F_{hisob} > F_{jadval}$ sharti bajarilganligi uchun (4) ko'p omilli ekonometrik model statistik ahamiyatli ekan.

Ko'p omilli ekonometrik modelning (4) hisoblangan parametrлari (regressiya koeffitsiyentlari) ishonchliligin Styudentning t -mezoni yordamida tekshiramiz. Ishonchlilik ehtimoli $\alpha = 0,05$ va ozodlik darajasi $d.f. = 12 - 5 - 1 = 6$ bo'lganda, t -mezonning jadval qiymati $t_{jadval} = 2,4460$ ga teng.

Regression hisob-kitoblardan shuni ko'rish mumkinki, barcha omillar bo'yicha t -mezonning hisoblangan qiymatlari $\alpha = 0,05$ va $\alpha = 0,1$ aniqlikda jadval qiymatidan katta ekan. Bu esa mazkur omillarning ko'p omilli ekonometrik modelda qatnashishlariga imkon beradi.

Ko'p omilli ekonometrik model (4) bo'yicha natijaviy omil qoldiqlarida avtokorrelyatsiyani tekshirish uchun Darbin-Uotson (DW) mezonidan foydalanamiz. Darbin-Uotson mezonining pastki chegarasi qiymati $DW_L = 0,56$ ga teng va yuqori chegarasi qiymati $DW_U = 2,21$ ga teng. $DW_{hisob} = 2,23$ ga teng. Demak, $DW_{hisob} > DW_U$ bo'lgani uchun natijaviy omil (ATB "Davrbank" kapitali ($\log Y$)) qoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjud emas ekan.

Xususiy bank kapitali indikatori to'g'risidagi ma'lumotlar asosida tuzilgan ko'p omilli ekonometrik model (4) barcha mezonlarga javob beradi. Ushbu model asosida biz xususiy bank kapitali ko'rsatkichi uchun 2028-yilgacha bo'lgan davr uchun prognoz qiymatlarini hisoblaymiz (6-jadval).

6-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, bankning xususiy kapitali prognoz davrida, ya'ni 2025-2028-yillarda o'rtacha 21549,2 mlrd. so'mga oshib bormoqda. 2028-yilda bankning xususiy kapitali 2024-yilga nisbatan o'rtacha 3,6 barobarga ortishi kuzatilmoqda. Bankning ustav kapitali prognoz davrida 2,248 trln. so'mga etishi mumkin ekan. Bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan o'rtacha 4,3 barobarga ortishi mumkin. Bankning ROE koeffisienti prognoz davrida, ya'ni 2025-2028 yillarda o'rtacha o'sishi 35,5 foiz foizni tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich 2028-yilda 2024-yilga nisbatan o'rtacha 1,2 barobarga ortishi mumkin. Bankning sof foydasi prognoz davrida, ya'ni 2025-2028 yillarda o'rtacha o'sishi 7769,5 mlrd so'mni tashkil etmoqda.

6-jadval

Xususiy bankning kapitali va unga ta'sir etuvchi omillarning prognoz hisob-kitoblari qiymatlari ²⁷

Yillar	Xususiy bankning kapitali (mlrd. so‘m), Y	Ustav kapitali (mlrd. so‘m), X ₁	ROE, (sof foydani kapitalga nisbati, %), X ₂	Sof foyda (mlrd. so‘m), X ₃	Subordinar qarz (mlrd. so‘m), X ₄	Emission kapital (mlrd. so‘m), X ₅
2012	201,9	67,8	18,72	37,80	0,0	1,9
2013	284,3	82,9	14,89	42,30	0,0	3,7
2014	363,0	131,5	18,31	66,50	0,0	5,2
2015	394,9	150,0	25,72	101,60	0,0	9,4
2016	528,3	271,3	24,73	130,70	0,0	28,4
2017	966,8	395,3	37,26	360,20	0,0	49,4
2018	1514,3	829,5	23,17	350,90	0,0	76,2
2019	1992,1	1124,1	27,81	554,10	38,4	144,4
2020	2863,0	1180,5	27,47	786,40	43,4	144,4
2021	3537,0	1488,9	27,90	986,90	43,7	144,4
2022	4442,0	2111,3	28,15	1250,40	105,1	255,2
2023	5977,0	3511,8	24,89	1487,70	111,0	519,1
2024	9021,1	6784,3	31,90	2877,45	167,5	1000,0
2025*	12456,3	7484,8	33,27	4143,68	283,0	1643,9
2026*	17199,5	10799,4	34,70	5967,11	478,0	2702,4
2027*	23748,9	15581,9	36,19	8592,94	807,4	4442,4
2028*	32792,2	22482,2	37,74	12374,28	1363,8	7302,8

* prognoz davri

Bu ko‘rsatkich 2028-yilda 2024-yilga nisbatan o‘rtacha 4,3 barobarga ortishi mumkin. Absolyut miqdorda esa 9496,83 mlrd. so‘mga ortishi mumkin ekan. Bankning subordinar qarzi prognoz davrida, ya’ni 2025-2028-yillarda o‘rtacha o‘sishi 360,3 mlrd so‘mmi tashkil etmoqda. Bu ko‘rsatkich 2028-yilda 2024-yilga nisbatan o‘rtacha 8,1 barobarga ortishi mumkin. Absolyut miqdorda esa 1196,3 mlrd. so‘mga ortishi mumkin ekan. Bankning emisson kapitali prognoz davrida, ya’ni 2028-yilda 2024 yilga nisbatan o‘rtacha 7,3 barobarga ortishi mumkin. Absolyut miqdorda esa 6,3 mlrd. so‘mga ortishi mumkin ekan.

Dissertatsiyaning **“Xususiy banklar kapitallashuv darajasini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida xususiy banklar kapitallashuv darajasini oshirish borasidagi muammolar keltirilgan va ularning yechimlari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan, shuningdek, dissertatsiya ishining mazkur bobida xususiy banklar kapitallashuv darajasini oshirishning asosiy yo‘nalishlari aniqlab berilgan.

Tadqiqotimiz davomida xususiy banklarni bank kapitali tarkibini oqilona shakllantirish va uning kapitallashuv darajasini oshirishning o‘ziga xos jihatlarini to‘liq tadqiq qilgan holda kapitallashuv darajasini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi asosiy muammolar aniqlandi:

xususiy banklar kapitalining barqaror manbasi hisoblangan zaxira kapitali ulushi past darajada saqlanib qolmoqda, zaxira kapitali banklarning bevosita “himoya yostig‘i” funksiyasini bajaradi hamda bank faoliyatini yanada rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, shu bois xususiy banklar kapitali tarkibida ushbu manbalarni barqaror oshishiga erishish lozim;

²⁷ XAB “Trastbank” XATB “Davr bank” ma‘lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

xususiy banklar kapitali tarkibida qo'shilgan kapital deyarli sezilmaydigan darajada. XAB "Davr bank"da bank kapitali tarkibida qo'shilgan kapitalning ulushi 2019-yilda 0,13 foizni tashkil etgan bo'lsa, XATB "OFB" bankda esa 2019–2023-yillarda bu ko'rsatkich umuman mavjud emas. 2024-yilning 1-yanvar holatiga Germaniyaning eng yirik xususiy banki hisoblangan Deutsche Bankining kapitali tarkibida 52,8 foizi qo'shilgan kapital hissasiga to'g'ri kelgan²⁸. Bu holat shundan dalolat beradiki, xususiy banklarning emissiya qilingan aksiyalari qimmatli qog'ozlar bozorida deyarli nominal bahosida sotiladi. Ularning bozor (real) bahosiga ta'sir etuvchi omillar yo'qligicha qolmoqda; Bu holat mamlakatimiz xususiy banklarining qo'shimcha kapital bazasini zaif ekanligidan dalolat beradi;

xususiy banklarimiz kapitallashuv darajasini oshirishda sof foydasining ulushi ham past darajadaligicha qolmoqda. Ularning ulushi jami kapitalning 2019-yil 5,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda esa 8,9 foizni tashkil etgan. Bu esa o'z navbatida bugungi kunda xususiy banklarimiz tomonidan avvalambor faoliyat natijasida olinadigan sof foyda miqdorini oshirish uchun chora-tadbirlarni kuchaytirishlarini va yillik olingan sof foydani taqsimlash jarayonlarini yanada takomillashtirish lozimligini bildiradi;

banklarning ustav kapitalining jami kapital hajmidagi ulushi pasayish bilan bog'liq bo'lib, tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, tijorat banklarida, 2019–2023-yillar mobaynida, ustav kapitalining jami kapital hajmidagi ulushi sezilarli darajada o'zgarishsiz bo'lgan. Ta'kidlash joizki, banklarning ustav kapitali barqaror manba sifatida kapital tarkibidagi ulushi yuqori bo'lishi lozim, uning ulushini kamayishi salbiy holat hisoblanadi;

xususiy banklarning subordinar qarz majburiyatlarining amaliyotda kam qo'llanilishi va bu xususiy banklarda qo'shimcha kapitalning yetarli emasligiga olib kelishi ekanligi. Tahlil qilingan davrda xususiy banklar tomonidan chiqarilgan subordinar qarz majburiyatlarning jalb qilingan mablag'lar tarkibidagi ulushi 2018-yillargacha bo'lgan davr davomida umuman yo'qligi hamda 2019-yilga kelibgina 0,4 foizni, 2024-yil yil boshiga esa 1,4 foizni tashkil etgan. Bu ham XATB "Davr bank" tomonidan uzoq muddatga chiqarilgan 178,0 mld. so'mlik subordinar qarz majburiyati hisobiga to'g'ri kelmoqda;

XAB "Davr bank" bank kapitali tarkibida konsolidatsiyalashgan sho'ba korxonalarga qilingan qo'yilmalar yo'qligi aniqlandi;

banklarning aksiyalarini qiymatiga salbiy ta'sir qiluvchi inflyatsiya va valyuta kursi omillari bilan bog'liq muammo. Tahlil natijalaridan ma'lum bo'ldiki, inflyatsiya darajasining nisbatan yuqori va nobarqaror ekanligi aksiyalarning investitsion qiymatiga salbiy ta'sir qiladi.

Izlanishimiz davomida xususiy banklar tomonidan ularning kapitallashuvi jarayonidagi mavjud muammolarni aniqlash bilan birga ularni imkon darajasida xal qilish orqali bank kapitalini oshirish yo'llari aniqlandi. Bizning fikrimizcha ular quyidagilardan iborat:

bank kapitali tarkibida ustav kapitalining ulushini doimiy ravishda oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ustav kapital bankning taqsimlanmagan foydasi bilan birga xususiy kapitalning eng barqaror qismi hisoblanadi;

²⁸ <https://www.deutschebank.co.in> - Germaniya Deutsche Banki moliyaviy hisoboti ma'lumoti asosida tuzildi.

xususiy banklar subordinar qarz majburiyatlari hajmini oshirish yo‘li bilan qo‘shimcha kapital bazasini mustahkamlash imkoniyatiga egadirlar. Xususiy banklar amaliyotida subordinar qarz majburiyatlarining mavjud emasligi ularning uzoq muddatli kreditlar bozoridagi mavqeining zaifligini bildiradi. Subordinar qarz majburiyatlari bank qo‘shimcha kapital tarkibining asosiy qismini tashkil etishi bilan bir qatorda uzoq muddatli resurslarni jalb qilishning qulay va arzon vositasi ekanligini inobatga olib, xususiy banklar tomonidan subordinar qarz majburiyatlarini jalb etish amaliyotini yana kengaytirish maqsadga muvofiqdir;

bank kapitali tarkibida sof foydaning ulushini oshirish lozim. Buning uchun bizning fikrimizcha, bankning har yili yillik moliyaviy siyosati ishlab chiqilishi va u bankning kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanishi lozim;

bizga ma’lumki, qo‘shimcha kapital ham bank kapitalining barqaror elementi hisoblanadi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, xususiy banklarimiz aksiyalari doimo deyarli ularning nominal baholari doirasida sotiladi. Hozirgi davrga qadar ham fond bozorining deyarli rivojlanmaganligi oqibatida yuqori daromad keltiruvchi bank aksiyalari ham o‘zining bozor bahosiga ega bo‘la olgani yo‘q;

xususiy banklarda lizing, trast, faktoring, forfeyting va sug‘urta kabi sho‘ba korxonalarning tashkil etilishi pirovard natijada bank faoliyati sof foydasi va jami kapitalining ortib borishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Banklar qoshida tashkil etilgan sho‘ba korxonalar mustaqil balansga ega bo‘lmaydi va ularning olgan foydasi buxgalteriya balansida bank foydasiga qo‘shiladi. Shuning uchun ham respublikamizda tijorat banklari qoshida tashkil etilishi mumkin bo‘lgan maxsus moliya kredit institatlari to‘g‘risidagi normativ huquqiy asoslar va me’yoriy tartiblarning yaratilishi va takomillashtirilishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalarning bank faoliyatiga to‘liq joriy etilishi albatta birinchidan, bank faoliyatining samaradorligini oshirsa, ikkinchidan, ularning kapitallashuvi jarayonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va uchinchidan, ularning barqaror faoliyat yuritishlari uchun iqtisodiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA

Dissertatsiya mavzusi doirasida mamlakatimiz xususiy banklarning kapitallashuv darajasini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar va tahlillarga tayanib quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi:

1. Xususiy banklar kapitallashuv darajasini oshirishning yo‘llari ko‘pqirrali bo‘lib, ulardan asosiyлари ustav kapitalini, taqsimlanmagan foydani, emission daromadni va joriy yil sof foydasini oshirish bilan bog‘liq yo‘llari yoritildi.

2. Xususiy banklar umumiy kapitalining bank sektorini umumiy kapitali hajmidagi salmog‘ining past darajada ekanligi, qo‘shilgan kapitalning umumiy kapital hajmidagi salmog‘ining kichikligi, xususiy banklarda qo‘shimcha kapitalni shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar mavjudligi aniqlandi.

3. Ma’lumki, xususiy banklar kapitallashuv darajasini oshirishda emission daromad va taqsimlanmagan foyda muhim o‘rin tutadi. Shu bois, tadqiqotlar natijasida mamlakatimiz xususiy banklar o‘z mablag‘lari tarkibida emission daromad manbasining ulushi sezilarsiz darajada ekanligi aniqlandi, fikrimizcha, banklarning aksiyalarini birlamchi qimmatli qog‘ozlar bozoridagi nufuzini oshirish orqali ushbu manbani ko‘paytirishga alohida e’tibor qaratishi lozim.

4. Hukumat qarorlariga asosan bank foydasining 30 foizdan kam bo‘lmagan mablag‘lari to‘g‘ridan to‘g‘ri bank ustav kapitaliga yo‘naltirilishi lozim. Natijada, xususiy banklarning I darajali kapital salmog‘i oshib boradi.

5. Xususiy banklar qo‘shimcha kapitali tarkibida konsolidatsiyalashgan sho‘ba korxonalariga qilingan qo‘yilmalar manbasini shakllantirish lozim. Chunki, ushbu holat bozor iqtisodiyoti sharoitida xususiy banklar xizmat turlarini oshirishning muhim masalalardan, shu bilan birga, ularning daromadini oshirishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan ham ularning qoshida mustaqil balansga ega bo‘lmagan faktoring va trast kompaniyalarini tashkil etish maqsadga muvofiqligi ta’kidlandi.

6. Tijorat banklari uzoq muddatga mo‘ljallangan uzoq muddatli qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarishi lozim. Hozirgi kunda tijorat banklarida uzoq muddatli resurslarga bo‘lgan talab juda yuqori, shu bilan birga, shularni hisobga olib banklarning uzoq muddatli, xususan subordinar qimmatli qog‘ozlarini muomalaga chiqarish lozim.

7. Xususiy bank aktsiyalarining ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorida (IPO) ommaviy savdoga qo‘yilishini ta‘minlash zarur. Buning uchun, birinchi navbatda, tijorat banklari tomonidan oddiy aktsiyalarga to‘lanadigan dividend darajasini investorlar manfaatlari uchun maqbul darajaga etkazish kerak. Bunday holda, hukumat tomonidan qisqa muddatli obligatsiyalar bo‘yicha to‘langan foizlardan asos sifatida foydalanish, inflyatsiya darajasi va valyuta kursining investorlarning bank aktsiyalariga kiritgan investitsiyalariga ta’sirini va ulardan keladigan daromadlarini hisobga olish kerak. Ko‘pgina tijorat banklarining ustav kapitalini ko‘paytirish uchun asosiy qismining ketma-ket bir necha yil davomida sof foydasini kapitallashtirish ular to‘laydigan dividendlarning pasayishiga olib keladi. Sof foydani kapitallashtirishda kapitalni shakllantirish matritsasidan foydalanish va dividendlarning doimiy o‘sish tendentsiyasini saqlab turish kerak. Aks holda, ikkilamchi fond bozorida aktsiyalarga barqaror talabni shakllantirish va bank aktsiyalarining bozor narxini aniqlash mumkin emas.

8. Xususiy banklarning kapitallashuv darajasini oshirish xususida iqtisodchi olimlar bergan ta’riflar turlicha bo‘lsada, tub mazmun va mohiyat bir xildir. Yuqoridagilarni e’tiborga olgan holda, aynan xususiy banklarning kapitallashuv darajasini oshirish xususida quyidagicha mualliflik yondashuvini ishlab chiqdik. Bank kapitallashuvi - bu bankning o‘z kapitali samaradorligining iqtisodiy ko‘rsatkichi bo‘lib, uning turli manbalar va mexanizmlar yordamida o‘zgaruvchan sharoitlarda o‘z-o‘zidan me’yoriy qiymatni saqlab qolish va o‘zini o‘zi ko‘paytirish qobiliyatini aks ettiradi. Bu orqali barcha banklar bank tizimida o‘z o‘rniga ega bo‘lishadi.

9. Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda xususiy banklar bajarayotgan barcha operatsiyalar bevosita yoki bilvosita bank kapitalining etarliligi va uning darajasini oshirishga bog‘liq bo‘lib, har qanday tijorat bankining to‘lovga qobilligini va risklardan holilagini baholashda bank kapitalining etarliligi asosiy omil hisoblanadi. Tijorat banklarining etarli miqdorda bank kapitaliga ega bo‘lishi, ularning to‘lovga qobilligi va likvidligini ta‘minlash, shuningdek, faoliyat davomida duch keladigan risklardan zarar ko‘rmay chiqib ketish imkoniyatini beradi.

Yuqorida bildirilgan xulosalar xususiy banklar kapitallashuv darajasini oshirish va pirovard natijada ular faoliyatining samaradorligini oshirishga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ № DSc. 03/10.12.2019.I.16.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ЦЕНТР «НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ И
ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА» ПРИ
ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

МИРЗАЕВА МАТЛУБА ГАЙБУЛЛА КИЗИ

**ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ УРОВНЯ КАПИТАЛИЗАЦИИ ЧАСТНЫХ
БАНКОВ**

08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

Город Ташкент – 2025 год

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером B2025.1.PhD/Iqt2771 в Высшей аттестационной комиссии.

Диссертационная работа выполнена в Научно-исследовательском центре «Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана» при Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации опубликован на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме) на веб-сайте Научного совета (www.tsue.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Калонов Мухиддин Бахритдинович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Джумаев Нодир Хосиятович
доктор экономических наук, профессор
Алимардонов Илхом Музрабшохович
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация:

АКБ «Алокабанк»

Защита диссертации состоится в _____ часов «_____» 2025 г. на заседании Научного совета №DSc.03/10.12.2019.I.16.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100066, город Ташкент, улица Ислама Каримова, д. 49. Тел.: (99871) 239-01-49, факс: (99871)236992, e-mail: info@tsue.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (регистрационный номер №____). Адрес: 100066, город Ташкент, улица Ислама Каримова, д. 49. Тел.: (99871) 239-01-49, факс: (99871)232-69-92, e-mail: info@tsue.uz.

Автореферат диссертации разослан «_____» 2025 года.
(реестр протокола рассылки №____ от «_____» 2025 года).

С.У. Мехмонов

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

У.В. Гафуров

Секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

С.К. Худойкулов

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой экономике увеличение капитализации частных банков имеет важное значение для укрепления устойчивости финансовой системы и стимулирования экономического роста. Укрепление базы капитала повышает финансовую устойчивость банков, расширяет возможности кредитования и снижает уровень риска на финансовых рынках. Это стимулирует активность частного сектора, финансирование новых инвестиционных проектов и способствует росту общей экономической активности. Кроме того, высокий уровень капитализации укрепляет доверие к банковской системе и является важным фактором обеспечения устойчивости экономики в условиях глобальной финансовой нестабильности. В частности, по данным Всемирного банка, “на конец 2020 года совокупный капитал первого уровня, принадлежащий 1000 крупнейшим банкам мира, составил 9,9 трлн. долларов США, что является самым высоким показателем за всю историю и что на 12,7 процента больше, чем в предыдущем году. Минимальный размер капитала первого уровня для 1000 банков также достиг 547 миллионов долларов США. Впервые эта цифра превысила 500 миллионов долларов, что свидетельствует о том, что, несмотря на проблемы, вызванные пандемией COVID-19, мировой банковский сектор находится в хорошей позиции, чтобы пережить экономический кризис”¹. При обеспечении уровня капитализации коммерческих банков, особенно частных, важным является обеспечение их текущей ликвидности за счет инвестиций в высоколиквидные ценные бумаги и устойчивости обязательств, а также повышение требований к достаточности регулятивного капитала.

В настоящее время научные исследования, проводимые во всем мире по повышению капитализации частных банков, в основном направлены на обеспечение финансовой устойчивости, разработку эффективных моделей управления рисками, оптимизацию требований к капиталу, а также глубокий анализ взаимосвязи банковского кредитования и экономического роста. Кроме того, к приоритетным исследованиям относятся оценка влияния требований к капиталу в соответствии со стандартами Базеля (в частности, Базеля III и Базеля IV), изучение динамики структуры капитала банков и процессов адаптации к макроэкономической среде, а также разработка новых механизмов капитализации в условиях цифрового банкинга и финансовых инноваций.

В Узбекистане обеспечение уровня капитализации частных банков и постоянное ее повышение за счет устойчивых источников остается одним из важных вопросов. В частности, на обеспечение и повышение уровня капитализации банков негативно влияют такие факторы, как отсутствие свободного обращения обыкновенных акций банков на фондовом рынке, высокая доля государства в капитале банков, практически полное отсутствие

¹ <http://www.worldbank.org/>

эмиссионного дохода в общей структуре капитала, крайне низкий размер выплачиваемых дивидендов по акциям банков, слабость депозитной базы, тенденция к увеличению доли проблемных кредитов. В частности, на обеспечение и повышение уровня капитализации банков негативно влияют такие факторы, как отсутствие свободного обращения простых акций банков на фондовом рынке, высокая доля государства в капитале банков, практически полное отсутствие эмиссионного дохода в общей структуре капитала, крайне низкий размер выплачиваемых дивидендов по акциям банков, слабость депозитной базы, тенденция к увеличению доли проблемных кредитов. В частности, одним из важных направлений определено “углубление реформирования банковской системы и обеспечение ее устойчивости, повышение уровня капитализации и депозитной базы банков, укрепление их финансовой устойчивости и надежности”². Поиск решений этих проблем требует проведения научных исследований в этой области.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №УП-60 “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”, от 3 февраля 2021 года №УП-6155 “О Государственной программе по реализации Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017 - 2021 годах в “Год поддержки молодежи и укрепления здоровья населения”, от 12 мая 2020 года №УП-5992 “О Стратегии реформирования банковской системы Республики Узбекистан на 2020-2025 годы”, от 2 сентября 2017 года №УП-5177 “О первоочередных мерах по либерализации валютной политики”, Постановлении Президента Республики Узбекистан от 12 сентября 2017 года №ПП-3270 “О мерах по дальнейшему развитию и повышению устойчивости банковской системы республики”, а также других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий I. «Духовное, нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Вопросы сущности, структуры, достаточности и совершенствования уровня капитализации частных банков всесторонне исследованы в научных трудах зарубежных классиков и современных ученых-экономистов, таких как А.Смит, К.Маркс, И.Трахтенберг, С.Лукаш, В.Киселев, О.Лаврушин, Дж.Матук, Д.Барлтон,

² Приложение 1 к Указу Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года №УП-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» //Сборник законодательных актов Республики Узбекистан. – Ташкент, 2017. – № 6 (766). – с.32.

Д.МакНоттон, Э.Рид³. В научных трудах ученых-экономистов Узбекистана, таких как Ш.Абдуллаева, Т.Каралиев, А.Омонов, Б.Бабаев, У.Ортиков, У.Розулов, М.Эгамова, Р.Курбанов, изучены особенности капитала частных банков⁴.

